## 2022- yil uchun Navoiy viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot

**YAHM hajmi, *mlrd. so‘m***

**66 685,4**

**YAHM o‘sish sur’ati**

**105,5 %**

**YAHM deflyator indeksi**

**107,6 %**



Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2022- yil uchun Navoiy viloyati bo‘yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o‘rinlarda –YAHM) hajmi joriy narxlarda 66 685,4 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2021- yil bilan taqqoslaganda 5,5 % ga o‘sdi.

YAHM deflyator indeksi 2021- yil narxlariga nisbatan 107,6 % ni tashkil qildi.

O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha YAIMning shakllanishida Navoiy viloyatining qo‘shgan hissasi 7,5 % ga yetdi.





## 2022- yil uchun iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o‘sish sur’atlari

| | *Mlrd. so‘m* | | ***O‘sish sur’atlari,*** *o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da* |
|---|---|---|---|
| | ***2021- yil*** | ***2022- yil*** | |
| **I. YAHM, jami** | **58 730,3** | **66 685,4** | **105,5** |
| *shu jumladan:* | | | |
| tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati | 57 720,0 | 65 444,6 | 105,5 |
| mahsulotlarga sof soliqlar | 1 010,3 | 1 240,8 | 106,2 |
| **II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati** | **57 720,0** | **65 444,6** | **105,5** |
| **qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi** | **8 607,8** | **9 077,2** | **104,0** |
| **sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)** | **42 024,4** | **47 914,0** | **105,9** |
| sanoat | 39 830,4 | 45 325,0 | 105,7 |
| qurilish | 2 194,0 | 2 589,0 | 109,3 |
| **xizmatlar** | **7 087,8** | **8 453,4** | **105,2** |
| savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar | 1 515,8 | 1 994,1 | 115,4 |
| tashish va saqlash, axborot va aloqa | 981,9 | 1 113,4 | 107,7 |
| boshqa xizmat tarmoqlari | 4 590,1 | 5 345,9 | 101,3 |



# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

Quyida keltirilgan infografikadan ko‘rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 63 832,1 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 3,4 % ga yuqoridir.

**Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi**
*(ming so‘mda)*

| | |
|---|---|
| 2021- y. | 57 370,6 |
| 2022- y. | 63 832,1 |

**Aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o‘sish sur’atlari**
*(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)*








# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi**
*(jamiga nisbatan % da)*

| | *2021- yil* | *2022- yil* |
|---|---|---|
| **I. YAHM, jami** | **100,0** | **100,0** |
| *shu jumladan:* | | |
| tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati | 98,3 | 98,1 |
| mahsulotlarga sof soliqlar | 1,7 | 1,9 |
| **II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati** | **100,0** | **100,0** |
| **qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi** | **14,9** | **13,9** |
| **sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)** | **72,8** | **73,3** |
| sanoat | 69,0 | 69,3 |
| qurilish | 3,8 | 4,0 |
| **xizmatlar** | **12,3** | **12,8** |
| savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar | 2,6 | 3,0 |
| tashish va saqlash, axborot va aloqa | 1,7 | 1,7 |
| boshqa xizmat tarmoqlari | 8,0 | 8,1 |



# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi

*(jamiga nisbatan % da)*

**2021- yil**




| | |
|---|---|
| *Qishloq, o‘rmon va baliqchilk xo‘jaligi* | **14,9%** |
| *Sanoat* | **69,0%** |
| *Qurilish* | **3,8%** |
| *Xizmatlar* | **12,3%** |

**2022- yil**




| | |
|---|---|
| *Qishloq, o‘rmon va baliqchilk xo‘jaligi* | **13,9%** |
| *Sanoat* | **69,3%** |
| *Qurilish* | **4,0%** |
| *Xizmatlar* | **12,8%** |

***Yalpi qo‘shilgan qiymat***

***Mahsulotlarga sof soliqlar***

2022- yil uchun hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 98,1 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 1,9 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 13,9 % ni, sanoat tarmog‘i 69,3 % ni, qurilish 4,0 % ni va xizmatlar sohasi 12,8 % ni tashkil qildi.





# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

**2022- yil uchun YAHM o‘sishida tarmoqlarning hissasi** *(jamiga nisbatan % da)*




YAHM o‘sishiga qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarmog‘i – 0,6 f.p. (2021- yilda 0,6 f.p.), sanoat tarmog‘i – 3,9 f.p. (2021- yilda – 4,8 f.p.), qurilish tarmog‘i – 0,3 f.p. (2021- yilda – 0,6 f.p.) va xizmat ko‘rsatish sohasi – 0,6 f.p. (2021- yilda – 1,1 f.p.) ijobiy hissa qo‘shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o‘sishi hisobiga YAHM 0,1 f.p. (2021- yilda – 0,2 f.p.)ga ko‘paydi.





# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

## YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha mutlaq o‘sish sur’atlari

*(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da)*

| | 2021- yil | 2022- yil |
|---|---|---|
| YAHM | 7,3 | 5,5 |
| Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 4,7 | 4,0 |
| Sanoat | 7,0 | 5,7 |
| Qurilish | 16,8 | 9,3 |
| Xizmatlar | 9,3 | 5,2 |

2021- yil
2022- yil

2022- yil uchun YAHMning o‘sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o‘sish sur’atlari bilan bog‘liqdir. O‘sish sur’atlari qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 104,0 % (YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi – 13,9 %), sanoatda – 105,7 % (69,3 %), qurilishda – 109,3 % (4,0 %), xizmatlar sohasida – 105,2 % ni (12,8 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o‘sish sur’atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda 115,4 % (3,0 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 107,7 % (1,7 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 101,3 % dan (8,1 %) iborat bo‘ldi.





# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

**YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi**

*(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)*

2022- yilning YAHM deflyatori indeksi 2021- yildagi narxlarga nisbatan 107,6 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari xizmatlarda 113,4 %, va qurilishda – 107,9 % qayd etildi.


















# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

**Kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi**
*(jamiga nisbatan %da)*

| | mlrd.so‘m | ulushi, % da |
|---|---|---|
| 2021- yil | 15 613,8 | 27,1 |
| 2022- yil | 17 552,3 | 26,8 |



2022- yilda kichik tadbirkorlik 17 552,3 mlrd. so‘mni tashkil etib (2021- yilda – 15 613,8 mlrd. so‘m), YAHMdagi ulushi 26,8 %ni tashkil qildi (2021- yilda 27,1 %).

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o‘tgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog‘liq.

